

O‘ZBEK TILIDAGI O‘ZLASHMA SO‘ZLARNING FONETIK XUSUSIYATLARI

Qo‘ziyev Umidjon Yandashaliyevich,

Namangan davlat universiteti dotsenti

email: kuziyevumid77@gmail.com

UO‘K: 811.512.133‘373.45

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18340796>

Annotatsiya. Maqolada so‘z o‘zlashuvi butun kompleks jarayon sifatida tahlil qilingan. O‘zlashma so‘zlar bir qolip sifatida namoyon bo‘lib leksikologiya bo‘limining tadqiqot obyekti bo‘lsa ham, shu qolipni ma‘naviy hamda mazmuniy jihatdan to‘ldirish turli ijtimoiy, siyosiy, madaniy omillar bilan bog‘liqdir. O‘zlashma so‘zlarning semantik jihatdan o‘zlashishi odatiy jarayon bo‘lib, u odatda vaqtincha, tez o‘zgaruvchan bo‘ladi. Biroq bir til ikkinchi tilning grammatik qurilishi va fonetik qatlamiga ta‘sir qilsa, til ham, shu millatning dunyoqarashi ham o‘zgarishga uchraganini anglatadi. Bu ta‘sirlar tilning ijtimoiy mohiyati va undan ta‘sir vositasi sifatida foydalanish imkoniyatini ham bildiradi.

Kalit so‘zlar: so‘z o‘zlashtirish, fonetik moslashuv, importatsiya, substitutsiya, fonema.

Аннотация. В статье анализируется ассимиляция слов как целостный сложный процесс. Хотя заимствованные слова проявляются как модель и являются объектом исследования лексикологического отделения, духовное и содержательное наполнение этой модели связано с различными социальными, политическими и культурными факторами. Семантическая ассимиляция заимствованных слов — это нормальный процесс, обычно временный и быстро меняющийся. Однако, когда один язык влияет на грамматическую структуру и фонетический слой другого языка, это означает, что изменились как язык, так и мировоззрение этой нации. Эти эффекты также указывают на социальную сущность языка и возможность его использования как средства влияния.

Ключевые слова: заимствование слов, фонетическая адаптация, импортация, субституция, фонема.

Annotation. The article analyzes word assimilation as a whole complex process. Although loanwords are manifested as a pattern and are the object of research of the lexicology department, the spiritual and content filling of this pattern is associated with various social, political, and cultural factors. The semantic assimilation of loanwords is a normal process, which is usually temporary and rapidly changing. However, when one language affects the grammatical structure and phonetic layer of another language, it means that both the language and the worldview of this nation have changed. These effects also indicate the social essence of the language and the possibility of using it as a means of influence.

Keywords: word acquisition, phonetic adaptation, importation, substitution, phoneme.

Kirish. So‘z o‘zlashtirish bir necha bosqichlarga bo‘linadi, jumladan: 1) fonetik o‘zlashtirish – so‘zning o‘zini qabul qilish (V.Pizani); 2) semantik o‘zlashtirish – kalka, etimologik kalka, semantik kalka (V.V.Ivanov). Shuningdek, chet so‘zlar fonetik, grafik, leksik-semantik, grammatik va me‘yoriy stilistik jihatdan o‘zlashadi [12:60]. Tilga o‘zlashma so‘z o‘z holicha qabul qilinganda, yangilik bo‘yog‘iga ega bo‘ladi. Shuningdek, leksikaning nafaol, bir ma‘noli so‘zlar qatlamlariga ham mansub bo‘ladi. O‘zlashmaning fonetik tarkibi, ba‘zan, grafik shakli ham yangilik bo‘yog‘ini saqlagan bo‘ladi, uslubiy jihatdan ma‘lum bir qatlamdagina qo‘llanadi.

Manbalarda ta'kidlanishicha, tashqi manba asosida lug'at boyligining kengayishi o'zbek tili doirasida 30-35 %ni tashkil etadi [10:54-58]. Chet so'zlarning o'zlashish jarayoni birdaniga sodir bo'lmay, uzoq vaqt talab qiladi. Bu vaqt mobaynida so'z bir qancha bosqichlar asosida tilga singib boradi. Ulardan lingvistik bosqichlar – fonetik, leksik, grammatik; nolingvistik jarayonlar – madaniy ta'sir, ijtimoiy-siyosiy yo'naltirishlar alohida ahamiyatga molik. Ushbu faslda fonetik bosqich so'z o'zlashtirishning shaklan eng quyi, mohiyatan eng yuqori darajada talqin etilgan. Tarixiy misollar orqali madaniy va siyosiy ta'sirning til sofligiga ta'siri ko'rsatib berilgan.

Biz quyida o'zlashma so'zlarning fonetik jihatdan moslashuvi hamda o'zgarishlari haqida fikr yuritmoqchimiz.

Adabiyotlar tahlili. O'zlashma so'zlarning fonetik moslashuvi xorijlik olimlardan P.Bursma, E.Brouzlou, S.Devis, I.Baginskaya, M.S.Kolesnikova, X.I.Iskender kabi olimlar ishlarida ko'zga tashlanadi. H.Ne'matov, Q.Mahmudov, M.Mirtojiyev va A.Abduazizovlar tadqiqotlar olib borishgan. Keyingi yillarda H.Jamolxonov, D.Nabiyeva, M.Zokirov, Z.Alimova ilmiy izlanishlarida o'zlashma so'zlarning semantik va fonetik o'zgarishlari yoritib berilgan.

Natijalar va tahlil. Tilga o'zlashish jarayonida bir qancha jarayonlar ro'y beradi. Heygen o'z tadqiqotida lisoniy o'zlashmalarni bir tildan ikkinchi tilga ko'chirib o'tkaziluvchi model/nusxalar sifatida talqin qiladi. Mazkur o'rinda olim ikkita hodisani farqlab beradi: importatsiya va substitutsiya. Importatsiyada o'zlashmaning shakli donor tilga yaqin tursa, substitutsiyada buning aksi kuzatiladi. O'zlashmalarning fonetik qurilishi, semantik xususiyatlari akseptor tilga kamroq o'zgarish bilan kirib kelsa, importatsiya, aksincha, akseptor til so'zning barcha jihatlarini o'ziga moslab olsa, substitutsiya yuz beradi. Biz buni onomastika sohasida yorqinroq kuzatish imkoniga egamiz. Biror xizmat shoxobchasi, firma va mahsulot nomlari xorijiy til shaklida berilishi atoqli otlarda ko'p kuzatiladi. Jumladan, *“Al-Mashriq”*, *“L'Oreal”*, *“Nougatte”*, *“Bizarre”* kabi. Garchi bu holatlar o'zlashma qatlamga o'tishi kam kuzatilsa-da, keyingi yillardagi tadqiqotlarda Pareto qonuniga asosan tildagi o'z fonemalar qatorida 80/20 nisbatida o'zlashma fonemalar ham joy olishi mumkinligini ilgari suruvchi nazariy qarashlar ham mavjud [16:69].

So'zlar fonetik jihatdan donor tildagi tovushlarni akseptor til egalari tomonidan moslashtirilishi bilan o'zlashtirish boshlanadi. Bunda so'zning tovush tarkibi fonetik (eshitilish) jihatdan emas, fonologik (tushunilish) jihatdan eng yaqin tovushlarga almashtiriladi. Bunda akseptor til egalari o'zlashma so'z tovushlarini ruhan his qilib, o'zlaridagi fonemalar bilan almashtirishgan va fonetik tarkib saqlanmagan. Masalan, arab tilidagi f tovushi o'zbeklar tomonidan p deb qabul qilingani kabi.

Qadimgi turkiy tilda 8 ta unli fonema bo'lib [2:7], turkiy yozuvlarda turlicha ifodalangan: O'rxun yozuvida ularning 4 tasi, enasoy variantida 5 ta unli harf bilan ifodalangan.

Qadimgi turkiy til O'rxun-Enasoy yozuv tizimida ba'zi undosh tovushlar nafaqat talaffuzda, balki yozuvda ham farqlantani. Ya'ni ular qattiq va yumshoqlikda farqlanib, bitta undosh tovushning o'zi ikkita harfiy belgi bilan yozilgan. Uyg'ur yozuv tizimida esa bunday tafovut o'z ifodasini topmagan. Hatto O'rxun-Enasoy yozuvida mavjud bo'lgan ayrim harflar bu yozuv tizimida yo'q [14:22]. Shuning uchun Mahmud Koshg'ariy bu haqda shunday yozadi: "Turkiy tillarda qo'llaniladigan asliy harflar soni o'n sakkiztadir. Holbuki, tildagi tovushlar o'n sakkizta emas, ko'pdir. Bu o'n sakkiz harf yetishmaydi. Bulardan boshqa bo'lgan tovushlarni berish uchun yana yetti harf kerak. Lekin u harflar yo'q. U yetti tovushni ana shu mavjud harflar ustiga maxsus belgi qo'yib yoziladi" [6:48]. Bular: *p, xç* (portlovchi), *j* (sirg'aluvchi), *f, g', ng, ny* kabi.

Bu paytda Mahmud Koshg'ariy arab tilidan o'zlashgan so'zlar tarkibida keluvchi *so, zod, sod, itqi, izg'i* tovushlarini turkiy xalqlar talaffuz eta olmasliklarini ta'kidlaydi. Shuningdek, XIV asrda Misrda o'g'uz, qipchoq qabila tili asosida bitilgan "Kitobi majmu'i tarjimoni turkiy va ajamiy va mo'g'uliy va forsiy" kitobida ham turkiy xalqlarning arabchadan o'zlashgan so'zlar tarkibida keluvchi *sa, ha, sod, zod, itqi, izg'i, ayn, fe, xç* kabi undoshlarini ayta olmasliklarini qayd qiladi. N.Z.Gadjiyevaning ta'kidlashicha, odatda, turkiy tillardagi barcha o'zlashmalar so'z yasash va so'z o'zgarish jihatidan turkiy tillarning ichki qonunlariga bo'ysunadi [3:33].

Arab alifbosiga asoslangan eski o'zbek yozuvida alif (a,o), vov (u, o', v), yo (i, e, y) harflari unlilar, shuningdek, undoshlarni ifodalaydi. Unlilarning so'z boshidagi varianti uchun esa alif+vov, alif+yo kabi birikmali holatlari qo'llangan. Mazkur alifboda yaratilgan manbalarda turkiy so'zlar fonetik tarkibining ifodalanishi bir necha usullar bilan berilganligi qayd etiladi: 1) arabiy so'zlar vazni orqali; 2) alifni ikki marta yozish orqali; 3) huruf-ul-mad belgisi yordamida; 4) huruf-ul-lin orqali; 5) ishba' bilan; 6) imola atamaları orqali; 7) qiyoslash yo'li bilan [15].

Eski o'zbek yozuvida arab tilidan o'zlashgan so'zlar grafik tamoyil asosida arab tilidagi shakli saqlanib yozilgan. Biroq lotin alifbosiga o'tish asnosida arab tilidagi *z, t, d, h* tovushlarining variantlari o'zbek tilida bir tovush va harf shakliga kelgan, *ع* ('ayn) tovushi qisqa to'xtalishga aylanib, unlini undoshdan ajratib o'qishga yoki unlining cho'zib o'qilishiga xizmat qila boshlagan va shaklan grafik belgiga – tutuq belgisiga almashgan.

O'zbek tiliga o'zlashayotgan so'zlar o'z talaffuz me'yori bilan keladi, ayniqsa, unlilarning o'qilish sifati saqlanishi turkiy tillarga xos ayrim fonetik qonuniyatlarni buzadi. Turkiy tillarda urg'u asosan oxirgi bo'g'inga tushadi, o'zlashma so'zlarda urg'uli unli so'z boshi va o'rtasida kelganda talaffuzda bu unli urg'usiz variantiga almashtirilib, urg'u so'z oxiriga ko'chiriladi: *mehmon (mih/ymon), televizor (tilivizir)*. Hattoki rus tilidan kirgan *-ov, -yev* kabi shaxs nomi yasovchi grammatik shakllar ham o'zbek tilida urg'usiz talaffuz qilinadi [13].

Rus tilidagi *x, u* tovushlari, ayrim tovushlarning yumshoq va qattiq variantlari ham fonetik-grafik moslashuv asosida qabul qilingan. Hozirgi o'zbek adabiy tiliga oid ilmiy

maqolalarda lab-tish (v, f) undoshlari fonema sifatida ko'rsatilgani holda, u harfi esa fonemalar safida berilmagan [9]. U undoshi o'n yillar mobaynida alifboga, imloga majburan kiritib kelinadi, keyinchalik yana alifbodan chiqib, t+s ga almashadi.

O'zbek tilining muhim belgilaridan biri – qaysidir tildan kiradigan o'zlashmalar uchun uchinchi til filtrining mavjudligidir. Jumladan, arab tili uchun fors tili, ingliz tili uchun rus tili shunday vositachilik vazifasini bajargan. Misol sifatida, *innovatsiya* (inglizcha “innovation”) so'zidagi -siya affiksi bevosita rus tili ta'siridadir. O'zbek tiliga arab tilidan kirib kelgan o'zlashmalar dastlab fors-tojik tili ta'sirida muayyan o'zgarishlarga uchragan. Imlo variantlarining mavjudligi integratsiya jarayoni hali davom etayotganligini bildiradi.

Ma'lumki, chet so'zlarning o'zlashish jarayoni birdaniga sodir bo'lmay, uzoq vaqt talab qiladi. Bu vaqt mobaynida so'z bir qancha bosqichlar asosida tilga singib boradi. Donor tildagi fonemalar akseptor tilning yaqin fonemalariga almashtiriladi, agar donor tilning ta'siri uzoq va muntazam bo'lsa, o'sha tovushlarning o'zi ham qabul qilinadi. Masalan, arab tilidagi cho'ziq a tovushi kirguniga qadar adab, keyin esa odob tarzida almashtiriladi. F fonemasi dastlab talaffuzda p tarzida qabul qilinadi, keyinchalik rasmiy imlo bo'yicha f ga o'tadi: *pitro'za – fitri ro'za* kabi.

Xulosa. Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, o'zlashma so'zlarning o'zlashuv jarayoni aynan fonetik qatlamdan boshlanadi va tilga o'zga tildan biror tovushning me'yor sifatida qabul qilinishi so'z o'zlashuvining eng yuqori darajalaridan hisoblanadi. Zero, tilning leksik qatlami o'zgaruvchan bo'lib, u keyinchalik grammatik bosqichga o'tishi mumkin, tilga muayyan tovushning kirishi yakuniy bosqich demakdir. Tilda shu tovush mavjud so'zlarning muayyan miqdori, onomastik qatlam, ilmiy va madaniy doiralarning ma'qullashi bilan yuz beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Абдуазизов А. Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси. Тўлдирилган ва тузатилган 2-нашри. – Тошкент: Университет, 2010. – 169 б.
2. Абдурахмонов Ғ., Рустамов А. Қадимги туркий тил. – Тошкент: Ўқитувчи, 1982. – Б. 7.
3. Гаджиева Н.З. Тюркские языки // Языки мира. Тюркские языки. – Бишкек, 1997. – С.33.
4. Гулямова Н. Русские лексические заимствования в узбекском языке. – Ташкент: Фан, 1985. – С.89.
5. Жамолхонов Ҳ. Ўзбек тилининг назарий фонетикаси – Тошкент: Фан, 2009. – 224 б.
6. Кошғарий М. Девону луғатит турк. I жилд – Тошкент: Фан, 1960. – Б. 48.
7. Маҳмудов Қ. Ўзбек тилининг тарихий фонетикаси. – Тошкент: “Ижод” нашриёт уйи, 2006. – 89 б.
8. Миртожиев А. Ўзбек тили фонетикаси. – Тошкент: Фан, 2013. – 424 б.
9. Набиева Д. Ундослар таснифи масаласига доир // Ўзбек тили ва адабиёти, 2-сон, 2016. – Б.32-36.
10. Назаров П. Ўзбек тилига ўзлашган сўзлар хусусида // Хорижий филология, 2019 – №4 – Б.54-58.
11. Неъматов Ҳ. Ўзбек тили тарихий фонетикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – 96 б.
12. Пейсиков Л.С. Лексикология современного персидского языка. – М.: Высшая школа, 1975. – С.60.

13. Ражабов Н. Ўзбек тилидаги урғусиз унлилар // Ўзбек тили ва адабиёти, 5-сон, 2012. – Б.89-94.
14. Тўйчибоев Б. Ўзбек тилининг тарққиёт босқичлари – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – Б. 22.
15. Умаров Э. “Девону луғотит турк”да чўзиқ унлиларнинг берилиши // Ўзбек тили ва адабиёти, 5-сон, 2010. – Б.74-77.
16. Ҳамроева Ш. 80/20 принципнинг тил сатҳларидаги инъикоси. “Тил. Адабиёт. Таълим” жамоавий монографияси. – Тошкент, 2024. – Б.69.

